

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablar
o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan "Lider o'qituvchilar" olimpiadasi**

PRESS-RELIZ

Hozirgi vaqtda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimida **14 ta** Prezident maktabi, **9 ta** ijod maktabi, **182 ta** ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari hamda "Yangi O'zbekiston" universiteti faoliyat yuritmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarida **70 mingdan** oshiq o'quvchi tahsil olib, ularga **8 500 ga yaqin** o'qituvchi ta'lim bermoqda.

Agentlik tizimidagi maktablarning STEM (matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika na science) fanlari o'qituvchilarining mahorati va bilim darajasini oshirish, ularning o'z iqtidorini namoyon etishida ko'maklashish hamda kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Lider o'qituvchilar" olimpiadasi tashkil etildi.

Mazkur olimpiadalar ikki davrga bo'lingan holda tashkil etildi. Birinchi davrda joriy yilning **4-5-yanvar** kunlari **matematika va kimyo fanlaridan** o'tkazilgan bo'lsa, ikkinchi davrda joriy yilning **19-20-aprel** kunlari **biologiya, fizika va informatika fanlaridan** tashkil etildi.

Xususan, biologiya, fizika va informatika fanlaridan o'tkazilgan olimpiadaning birinchi (*hududiy*) bosqichi **2024-yil 1-mart** kuni hududlarda o'tkazilib, unda har bir maktabdan **9 nafargacha** (*3 nafar biologiya, 3 nafar fizika hamda 3 nafar informatika*) jami **1530 nafar** o'qituvchi ishtirok etdi. Ikkinchi (*Agentlik*) bosqichiga hududlar bo'yicha jami **126 nafar** o'qituvchi saralab olindi. Mazkur olimpiadaning ikkinchi bosqichi **19-aprel** kuni Toshkent shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabida o'tkazildi.

Har bir fan bo'yicha eng yuqori o'rinlarni egallagan **10 nafardan** o'qituvchi ushbu fanlarning Fan kengashi a'zoli sertifikatiga ham ega bo'lishdi.

Fan kengashi a'zoli sertifikatini bir yilga beriladi hamda **quyidagilar fan kengashlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari hisoblanadi:**

maktablarda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va loyihalarni ishlab chiqish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'qitish va baholash tizimini takomillashtirib borish hamda ularni umumta'lim maktablarga joriy etish jarayonlarida faol ishtirok etish;

pedagog xodimlarning mahoratini hamda o'quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan o'quv materiallarni yaratish;

mamlakatimizda tashkil etiladigan xalqaro va mahalliy fan olimpiadalarining tashkiliy qo'mita va hakamlar hay'ati a'zoliqiga nomzodlarni jalb etish;

ilg'or tajribali xalqaro va mahalliy o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirish maqsadida har yili bir marta STEM fanlari bo'yicha «Ta'lim konferensiyasi»ni tashkil etish.

Shuningdek, mahalliy va xalqaro olimpiadalarga o'quvchilarni tayyorlash, olimpiada materiallarini ishlab chiqish va olimpiadalarni tashkil etishda ishtirok etishadi.

Olimpiadaning g'olib va sovrindorlari **20-aprel** kuni Sergeli tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda bo'lib o'tgan taqdirlash marosimida diplom, sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan tantanali taqdirlandi.